

**KUTUBXONA NODAVLAT JAMOAT TASHKILOTLARI  
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH USULLARI  
(O‘zbekiston tajribasi)**

**Xudayberdiyeva Zebiniso Maxmadustovna**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Kutubxona fondlari va  
bibliografiyashunoslik kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi, xususan, fan, ta’lim va madaniyat rivoji uchun asosiy shartlardan biri turli sohalarga oid zarur axborot-resurslarnilarni tezkorlik bilan olish imkoniyatiga bog‘liqdir. Bu maqsadlarga erishishda kutubxonalar juda katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan barcha turdagi kutubxonalardagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish uchun, xorijiy tajribalarni o‘rganib amalda tadbiq etgan holda, turli xil maqsadlarni oldiga qo‘yib rivojlantiradigan kutubxon nodavlat notijorat jamoat tashkilotlar faoliyatini tashkil etish juda dolzarbdir. Mazkur maqolada kutubxona nodavlat jamoat tashkilotlari faoliyatini tashkil etish usullari O‘zbekiston tajribasi tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** kutubxona faoliyati, tashkil etish, axborot-kutubxona infratuzilmasi, notijorat jamoat tashkilotlari.

**Abstract:** One of the main conditions for the socio-economic development of any country, especially for the development of science, education and culture, depends on the ability to quickly obtain the necessary information and resources related to various fields. Libraries are very important in achieving these goals. In order to eliminate the problems and shortcomings of all types of libraries operating in our country, it is very urgent to organize the activities of library non-governmental non-profit public organizations that develop various goals by studying and applying foreign experiences. This article analyzes the methods of organizing the activities of library non-governmental public organizations and the experience of Uzbekistan.

**Key words:** library activity, organization, information-library infrastructure, non-profit public organizations.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda axborot-kutubxona sohasi rivojiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 20- martdagi “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi-axborot resurs markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” gi PQ-1729 sonli va 2012 yil 21 martdagi

“Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va yanada rivojlantirish choralari to‘g‘risida” gi PQ- 1730 sonli qarorlari ijrosini taminlash maqsadida Respublikamizning barcha axborot kutubxona muassasalari o‘rtasida zamonaviy korparativ tarmoq qurishga kirishildi.

Prezidentimiz, tomonidan axborot-kutubxona faoliyati bo‘yicha qabul qilingan qarorlar va boshqa me’yoriy hujjatlarda aholining barcha qatlagini kutubxona xizmati bilan qamrab olish, shuningdek, olis hududlarda yashovchi aholi uchun ko’chma kutubxonalar tashkil etish, hujjatlarni elektron yetkazib berish, axborot-kutubxona resurslaridan masofadan foydalanishni rivojlantirish, adabiyotlarning elektron nusxalarini shakllantirish, yakka, guruhlar o‘rtasida hamda ommaviy kitobxonlik tizimini takomillashtirish, aholining kitobxonlik va mutolaa madaniyatini yuksaltirish, axborot-kutubxona muassasalari va soha mutaxassislarini nufuzini oshirish masalalari o’rin olgan.

Ayni kunda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi tasarrufida 14 ta viloyat, 186 ta tuman, shahar axborot-kutubxona markazlari faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari, turli vazirlik va idoralar tizimida qariyb 90 million nusxaga yaqin kitob fondiga ega 14 mingdan ziyod axborot-kutubxona muassasalari mavjud. Umuman, mazkur yo’naliishda 25 ming nafarga yaqin kutubxonachi mutaxassislar kitobxonlarga xizmat ko’rsatib keladi. O‘zbekistonda 12 mingga yaqin kutubxonalar, jumladan, oliy o‘quv yurtlari, kollejlar, litseylar, maktablar kutubxonalarini, axborot-kutubxona markazlari (viloyat xalq kutubxonalar), ixtisoslashtirilgan kutubxonalar va O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

O‘zbekiston Respublikasining axborot-kutubxona infratuzilmasi

<b>Idora</b>	<b>Etakchi kutubxona</b>	<b>Kutubxonalar soni tizimda</b>
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi	NBU ularni. Alisher Navoiy	14 ta viloyat ommaviy kutubxonasi (axborot kutubxona markazlari) + 186 ta viloyat ommaviy kutubxonasi
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi	Fanlar akademiyasining asosiy kutubxonasi	Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot

		institutining 34 kutubxonasi
sog`lijni saqlash vazirligi	Respublika ilmiy tibbiyot kutubxonasi	114 kutubxona (24 ilmiy tibbiyot, 79 tuman tibbiyoti, 11 universitet)
Xalq ta'limi vazirligi	Respublika bolalar kutubxonasi; O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Axborot texnologiyalari markazi	9942 ta maktab kutubxonasi
Madaniyat va sport vazirligi	Respublika ko'zi ojizlar va zaif ko'rvuchilar kutubxona	Ko'zi ojizlar va zaif ko'rvuchilar uchun 14 ta kutubxona
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	O'zbekiston Milliy universiteti Axborot- resurs markazi (ARM).	516 kutubxona (130 ta universitet, 201 ta kollej, 185 ta texnikum)
Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi	Toshkent davlat agrar universiteti	113 kutubxona
Mudofaa vazirligi	Mudofaa vazirligi kutubxonasi	113 kutubxona
Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi	O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi O'quv markazi kutubxonasi	132 kutubxona
Mahalla qo'mitalari (mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimlari) va boshqa vazirlik va idoralarning kutubxonalari	Toshkent shahrining “Zamonaviy mahalla” loyihasi doirasida	500 dan ortiq kutubxonalar

Tahlil natijalaridan kelib chiqib shuni aytish lozimki, bugungi kunda chet eldag'i eng yirik davlatlar kutubxonalarini holatini o'rganib, jahon tajribasi tahlilining ijobiy natijalarini qo'llagan holda O'zbekistonga tadbiq etish va asosiy masalalardan hisoblangan maqsadlarga erishishda kutubxonalar juda katta

ahamiyatga ega. Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan barcha turdag'i kutubxonalarining muammo va kamchiliklarni bartaraf etish uchun xorijiy tajribalarni o'rganib amalda tadbiq etgan holda, turli xil maqsadlarni oldiga qo'yib rivojlantiradigan Kutubxona nodavlat notijorat jamoat tashkilotlari faoliyatini O'zbekistonda rivojlantirish kerak. Bundan tashqari dunyodagi eng yetakchi davlatlar aro hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali axboraot-resurslarini arzon narxlarda sotib olib, sarf-xarajatlarni kamaytirigan holda foydalangan holda mablag'larni tejash orqali kutubxonalarini fondini yanada boyitish mumkin.

Taklifim, chet eldag'i ng rivojlangan davlatlar aro hamkorlikni yo'lga qo'yib, kutubxona sohasidagi eng zamonaviy xorijiy tajribalarni o'rganish va o'zaro tajribalar almashishib, yurtimizda faoliyat yuritib kelayotgan barcha tudagi kutubxonalarining zamon talabiga mos axborot-reurslarini boyitish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Raxmatullayev M.A., Ganiyeva B.I. Jahon axborot resurslari: darslik / M.A.Raxmatullayev, B.I. Ganiyeva; oliv va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU.-Toshkent: Aloqachi, 2019.-192 b.
2. Rahmatullayev. M. «Анализ использования электронных ресурсов и публикационной активности в научных и образовательных учреждениях узбекистана. – 2019.
3. Axborot-kutubxona faoliyatiga oid standartlar to'plami: [Matn]: metodik qo'llanma / O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi; tuzuvchi A. Xodjayev va boshq. – Toshkent: O'zbekiston markasi, 2008. – 480 b.
4. Рогожина Т. Методология создания образовательного онлайн-курса: От идеи до воплощения / Т. Рогожина // МИР НАУКИ, КУЛЬТУРЫ, ОБРАЗОВАНИЯ.– 2021. – Vol. 2. – P. 90-93.
5. Технология составления методических пособий: консультация / ГБУК «Сахалин. обл. дет. б-ка»; сост. И. М. Калиновская. - Южно-Сахалинск, 2016. - 23 с.